

"AJOYIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR" ASARIDA UBAYDULLA UVATOVNING TARJIMONLIK MAHORATI

Xoldorova Dinoraning

T.D.Sh.U magistranti

"Ubaydulla Uvatovning tarjimonlik mahorati"

mavzuidagi maqolasi

Email: dinoraxoldorova9@gmail.com

Tel nomer: 887001206

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ubaydulla Uvatovning tarjimonlik mahorati yoritilgan. Tarjimon ega bo'lishi kerak bo'lgan mezonlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari asosida tahlil qilingan maqola.

Annotation: This article describes Ubaydulla Uvatov's translation skills. Information is provided on the criteria a translator must have. An article based on the work "History of the great al-Maqdur fi Taymur".

Kalit so'zlar: Ubaydulla Uvatovning hayoti va ijodi, Ibn Arabshoh, tarjimonlik mahorati, "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari.

Keywords: Life and work of Ubaydulla Uvatov, Ibn Arabshah, translation skills, "Wonderful history of al-Maqdur fi Taymur".

Ubaydulla Uvatov – o'zbek islomshunos olimi, sharqshunos, tarix fanlari doktori, professor, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direktori.

Ubaydulla Uvatov 1940- yil 23- fevral kuni Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani, Pachkamar qishlog'i, chorvador oilasida tavallud topgan. 1964-yil O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharq fakulteti, arab filologiyasi bo'limini sharqshunos, arab filologi mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 1964-yildan boshlab turli davrlarda Toshkent Davlat universitetining Sharq fakultetida pedagogik faoliyatini olib borgan. Shuningdek, 1962-1963-yillarda Misr Arab Respublikasi, 1966-1967 va 1975-1978 -yillarda Iroq davlati, 1982-1985- yillarda Liviya Xalq Jamohiriyasida arab tili tarjimonni sifatida faoliyat ko'rsatgan.

U.Uvatov¹ yurtimiz tarixinining eng ko'zga ko'ringan siymosi Sohibqiron Amir Temur hayoti va foliyatini o'rganishga bag'ishlangan muhim tadqiqotni sobiq sho'ro davrida ya'ni eng murakkab davrda olib bordi. Chunonchi, Ubaydulla Uvatov Amir Temur va temuriylar davrini XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshoh (1388-1450) tomonidan o'zi shohid bo'lgan holda yozilgan o'rta asr manbasiga tayangan holda ochib bergen. Bugungi kunda shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, bundan qariyb ellik yil oldin amalga oshirilgan ilmiy ish o'z davriming jasorati bo'lgan. Zero, mustabid tuzum davrida Amir Temur va temuriylar tarixi haqida bu tarzdagi ilmiy tadqiqot olib borish o'ta qaltis, qattiq nazorat ostida edi. Bunday tadqiqotni yuzaga olib chiqish – sarflangan kuch-quvvat, diqqat-e'tibor va umrni behudaga ko'kka sovurish bilan barobar edi.

Mohir tarjimon Ubaydulla Uvatovning "Ajoyib al-maqdur" asari saj usulida yozilgan murakkab tarixiy asar bo'lishiga qaramasdan , bu asarni muvaffaqiyatli tarjima qildi. Tarjimon mahoratining barcha mezonlari Ubaydulla Uvatov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni ustozning asarlari bilan tanish barcha o'quvchilar biladi. Hech ikkilanmasdan shuni aytish mumkinki, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur" asari Ubaydulla Uvatov tomonidan asliyatdan ham ko'ra chiroyli tarjima qilingan. Ko'pchilik olimlar bu asarni tarjima qilishga harakat qilgan , lekin oxirigacha tarjima qilish hammaga ham nasib etavermagan. Mana shunday olimlardan biri Rossiyalik yozuvchi , tarjimon A.Aleksandrov. U.Uvatov bu asarni tarjima qilishni boshlaganda Rossiyalik hamkasbi ham bu asarni asarni tarjima qilishni boshlagan va oxiriga yetkaza olmaganidan xabar topib, nima sababdan davom ettirmaganligini bilish uchun Rossiyaga boradi. U tarjimonning davom ettira olmaganligi sababi asar o'ta murakkab saj usulida yozilganligi hamda qofiyaga ko'p e'tibor berilganligi deb

¹ Ilmu ma'rifatga baxshida hayot (U.Uvatov 80 yoshda) maqola

e'tirof etadi. "Ajoyib al-maqdur" asari boshidan -oxirigacha quyidagi kabi nasriy saj usulida yozilgan.Har bir gap oxiridagi so'zlar quyidagi kabi qofiyadosh:

فَلَمَّا وَقَعَ نَظَرُ الشَّيْخِ عَلَيْهِ . سَارَعَ إِلَى تَقْبِيلِ يَدِيهِ . وَ اكْبَرَ عَلَى وَجْلِيهِ . فَقَنَّقَرَ الشَّيْخُ سَاعَةً . ثُمَّ رَفَعَ رَأْسَهُ إِلَى الْجَمَاعَةِ .
aljamaah-saah-vajlah-yadayh-alayh.

Asar boshidan- oxirigacha shu tarzda qofiyadosh qilib yozilgan ya'ni nasriy saj uslubida.

Tarjimada tarixiylik va milliylik saqlanib qolgan. Buni biz klassik adabiyotlarda uchraydigan XV asr tiliga mos ayrim so'z va iboralarda ko'rishimiz mumkin. "Ajoyib al-maqdur" asari nasriy saj uslubida yozilgan hamda ma'nodosh so'zlar qayta-qayta takrorlangani sababli, tarjimada ham shu xildagi so'zlarning to'liq aks etishiga ahamiyat berilgan. Masalan, arabchasi:

ثُمَّ تَرَدَ قَوْدَرْزٌ عَلَى تِيمُورَ فِي قَلْعَةِ سِيرْجُونَ قَالَ ، "مَحْضُومٌ إِنْ مَلِكٌ مُنْصُورٌ كَانَ لَا يَزَالُ عَلَى قِيدِ الْحَيَاةِ" اَنْتَشَرَتْ هَذِهِ الْكَلْمَاتُ فِي الْأُمَّةِ كُلِّهَا ، وَ قُضِيَ قَوْدَرْزٌ شَهُورًا وَ سَنَوَاتٍ فِي اِنتَظَارِ ظَهُورِ الْمَلِكِ مُنْصُورٍ . نَتْيَةً لِذَلِكَ اسْتَولَى تِيمُورٌ عَلَى قَلْعَةِ سِيرْجُونَ ، لَكِنَّهُ لَمْ يَتَجَهْ فِي السُّبْطَرَةِ عَلَى الْقَلْعَةِ الصَّغِيرِ .

Tarjiması: "Keyin Temurga qarshi Sirjon qal'asida Qudarz isyon bildirib: "Mahdumim Shoh Mansur hali tirik", -dedi. Bu so'zlar xosu avomlar o'rtasida tarqalgan bo'lib, Qudarz Shoh Mansurning zohir bo'lishini kutakuta oylar va yillarni o'tkazaverdi. Natijada Temur Sirjon qal'asini muhosara etdi-yu, lekin qal'a ustidan hukmga erishish unga nasib bo'lmedi".

" محضوم "xizmat qilinadigan shaxs" degani. Tarjimon tarixiylikni saqlab qolish maqsadida mahdum so'zini o'zgartirmagan. "Mahdum" so'zi lug'atda " xizmat qilinadigan shaxs" degani. Bu so'zni tarjimadagi ma'nosini berganda to'g'ridan- to'g'ri, tarjima g'aliz chiqardi, askarning Temurga bo'lgan hurmati bilinmas edi, tarixiylik ham yo'qolardi yoki "ابها bu so'zni to'g'ridan -to'g'ri tarjima qilsak "barcha xalq" degani . Tarjimon bu so'zni "xosu avom" deb bergen . Avom- omma, xalq degan ma'noni bildiradi arab tilida. Bu so'z o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar qatoriga kiradi." Barcha xalq " birikmasini " xosu avom" birikmasi tarzida tarjima qilish asarning tarixiyligi, milliyligini saqlab qolishda yanada xizmat qilgan.

"Lekin arab tilining xossasi o'z tuzulishidagi vaznlarga asosan ajam so'zleri sharini yumalatib , o'z tili maydonida istagan tomoniga qarab yuritadi" .

لَكُنْ مَا يَمِيزُ الْلُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ هُوَ أَنَّهُ حَسْبَ الْأَوْزَانِ فِي تَرْكِيَّتِهَا، فَإِنَّ كَلْمَاتَ غَيْرِ الْعَرَبِيَّةِ مُسْتَيْرَةٌ وَ تَتْحَرَّكُ فِي أَيِّ اِتْجَاهٍ فِي مَجَالِ لَغَتِهَا .
Ustoz bu yerda "chet el so'zları" yoki "arab bo'limganlar " so'zları tarzida tarjima qilishi mumkin edi , chunki "العجم" lug'at kitoblarida "chet el , arab bo'limgan" degani.Tarixiylikni saqlab qolish uchun" ajam " so'zini o'zgartirmagan.

ولد تيمور بن ترايري في قرية تسمى خوجة الغور .

"Temur ibn Tarag'ay ibn Abag'ay bo'lib , uning tug'ilgan joyi Xo'ja Ilg'or deb ataladigan qishloqdir" .

Bu gapda ham "ibn " so'zi ibn deb tarjima qilingan. Lekin - ابن o'g'il deb tarjima qilinadi lug'atlarda ham , tarjima asarlarda ham.Ubaydulla Uvatov" ibn " deb tarjima qilganining boisi , Amir Temur davrida odamlar bir-biriga murojat qilishganda ibn, abu so'zlarini qo'shib ishlatishtgan.Masalan, ibn Xaldun-Xaldunning o'g'li (Amir Temuring suyukli tarixchilaridan biri), اب معتزى- Abu Mu'tazid- Mu'tazidning otasi. كيس هي إحدى مدن مورونهر، ثلاثة عشر فرسخا من سمرقند ۱۰

"Kesh Movaraunnahr shaharlaridan biri bo'lib , Samarqanddan taxminan o'n uch farsaxdadir" .

Bu gapda ustoz "farsax "so'zini kilometr deb tarjima qilishi mumkin edi. Lekin kilometr desa tarixiylik yo'qolardi.Temuriylar davrida 6-8 kilometr masofadagi joylar "farsax "deb atalardi.

عندما غزا تيمور مفارونهار و فاز، تزوج من بنت الخانت، الكلمة تسمى "هاتان" في المنغولية .

"Temur Movaraunnahrni egallab , o'z raqiblaridan ustun chiqqach, xonlarning qizlariga uylandi. Natijada, uning laqablari ustiga "ko'ragon" so'zini qo'shdilar . Bu so'z mo'g'ul tilida " xatan" demakdir".

Bu gapda " ko'ragon" so'zi "xon kuyovi" tarzida emas , balki " ko'ragon" deb tarjima qilingan.Chunki "ko'ragon" oliy va mashhur laqablardan biri edi. Chingizzon nasabi bilan yaqinlik qilish afzal hisoblanardi.Xon qizlariga uylanganlarga "ko'ragon " maqomi berilardi. "Xon kuyovi" deb tarjima qilinganda asar badiyati , tarixiylik buzilar edi.

Nazmiy o'rinnlarda ham mazmunning to'liq saqlanishiga e'tibor berilgan.Qur'on oyatlari va ulardan iqtiboslar I.Yu.Krachkovskiy tomonidan bajarilgan ruscha tarjimasiga moslashtirilib o'girilgan va matnda qo'shtirnoq ichiga olinib , izohlarda sura va oyat raqamlari ko'rsatilgan.

Masalan:

لقد أظهر الله قوته بحكمه السري

فمن جف جزءاً من بدنه فلدينه الدنيا.

Alloh o'zining pinhona hukmi bilan qudrat ko'rsatdi.

Tananing bir qismi qurigan kishi dunyoga ega bo'ldi.

المملكة بلا يد في خاتمه

و العرش تحت قدميه تحت قدميه .

Qo'li yo'qu podshohlik uning uzugida,

Oyog'i yo'qu taxt uning qadami tagida .

يحتاجكم لأن مكانة الرحمة أسمى من رحمة الدنيا

لأن مكانة الرحمة أسمى ي يحتاجكم الدنيا.

O'z mavqeing bilan senga muhtoj kishiga yordam qil ,

Chunki mavqe muruvvati mol - dunyo muruvvatidan ustundir.

Yozuvchi nazmiy o'rirlarda ham uslubni va ma'noni aniq va to'g'ri bergan."Ajoyib al-maqdur" asari saj uslubida yozilganini yuqorida aytib o'tgandik. Ubaydulla Uvatov ham nazmlarni saj uslubida tarjima qilgan.Ustoz shoir emas, lekin bu nazmlarni o'qigan o'quvchi bu shoirlar ijodi deb o'ylaydi.Bundan ko'rishimiz mumkinki ,Ubaydulla Uvatov ustozda haqiqiy tarjimonlik mahorati bor. Muallif uslubini saqlab qolish hamma tarjimonlarga ham nasib etavermaydi. Mohir tarjimongina muallif uslubini saqlab qola oladi.

Bundan tashqari, ustoz Ubaydulla Uvatov Qur'on oyatlari kelgan jumlalarni ham mukammal tarjima qilgan ma'nolariga putur yetkazmasdan.

Masalan:

الله من الإنسان أن الله عزيز و غفور .

Alloh odamzotdan "qay birlari amalda yaxshiroq ekanini sinamoq uchun ularga ba'zi bir azob va qiyinchiliklarni tattirdi . U aziz va avf etuvchidir ".

في هذه الطريقة حسبنا الله و نعم الوكيل

Bu yo'lda tangri "men uchun eng sodiq va g'oyatda yaxshi yo'lboshchidir" .

Uni ko'rgan kishi u hali "rosa ulg'ayib , balog'atga yetmagan" deb tasavvur qilardi.

مقبرة الشیخ كان تحتها الأنهار الحقيقة على

U shayxning qabri "barqaror bir tepa" ustida bo'lib , "etagidan anhorlar joriy bo'lgan bo'stonlari" ham bor edi .

Raqiblar to'qnashuv "osmon yulduzları chalkashib" jang nayzalari bir- biri bilan aralashib chirmashib ketgan edi .

Ibn Arabshoh turli xil voqealarni , shaxslarni tasvirlashda Qur'oni karim oyatlaridan iqtiboslar keltiradi .Qur'oni karimni o'qimagan , tanimagan, dindan xabari yo'q tarjimon oddiy matnni tarjima qilgandek tarjima qilishi mumkin.Ustoz Ubaydulla Uvatov nafaqat tarjimon , balki Islom dinini, Qur'oni karimni , hadisshunoslikni mukammal biladigan buyuk olim hamdir. Asarda Qur'oni karim oyatlari kelgan o'rinalar bexato tarjima qilingan.Qaysi sura , nechanchi oyat ekanligi izohlarda yozib qoldirilgan.

Hijriy sana hisobida berilgan barcha tarixlar(yil, oy, kun) tarjima matnining o'zida milodiyga aylantirilib , kichik qavsga olinib keltirilgan.

Masalan:

ثم في شهور رمضان و شعبان ٨٠٢ سنة، قتل امير تمام في شام و أمراء و اعيان شهور .

"Temur mazkur sulton Husaynni 771 yilning sha'bon oyida (28-fevral -29-mart 1370- yil) o'ldirgan va o'sha vaqtdan boshlab mustaqil ravishda hokimiyatga egalik qilib, keyinroq eslatib o'tilajagidek , 807 yilning sha'bon (1405-yil, fevral) oyida vafot etdi.

قتل نيمور هذا السلطان حسين في شهر شعبان ١٣٧١ و منذ ذلك الحين في السلطة ١٤٥٥ بشكل مستقل ، و توفي في شعبان سنة

...Keyin 802 -yilning ramazon va sha'bon (mart- aprel 1400-yil) oylarida Xudo muhofazasidagi Shomda amirlar hokimi Tanam, bosh amirlar va mashhur a'yonlar qatl qilindi " .

Hijriy sana hisobida berilgan barcha tarixlar tarjima matnining o'zida milodiyga aylantirilganidan bilishimiz mumkinki , Ubaydulla Uvatov tarixshunos ustoz hamdir.

Ma'lum darajada ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqealar, jug'rofiy va tarixiy nomlar, mashhur shaxslarga izohlar berilib, ular xususida bir qadar mufassalroq bayon qilingan.

Masalan arabchasi:

اعظمهم امير محمد حاكم بوفارد، وامير عبدالله امير صرخس . حافه الملك شجاع. كل هذا حدث في فترة و جيزة، في غضون أيام قليلة، بعد حوالي عامين من اعراق من مزدرا، من قيلان، من راي تيمور سلطان حسين يسرهن الناس اخبارهم بقائهم و باذنهم كل الناس .

"Ularning eng ulug'lari Bovard hokimi amir Muhammad va Sarxas hokimi amir Abdullodir. Temurning haybati barcha ufqlarga yoyilib, qudrati satvoti Mozandaron, Qiyon, Ray yerlari va Iroqqacha borib yetdi. Odamlar qalblariyu quloqlari uning xabari bilan to'lib toshdi, uzoq -yaqindagilar, ayniqsa Shoh Shujo undan xavflandi. Bu ishlar hammasi qisqa muddatda, oz kunlar ichida, Temur sulton Husaynni qatl etgandan keyin ikki yil chamasi o'tgach sodir bo'ldi".

1. Amir Muhammad (Bovard hokimi) - Joni qurbaniy qabilasining boshlig'i Arg'unshoh o'g'li. Otasi vafotidan keyin u hokimiyatga ega bo'lgan edi.

2. Qo'lyozmada Sarxas hokimi "qazo" deyilgan .Nashrda keltirilgan "amir Abdullo" esa xatodir. Darhaqiqat Temurning bu yurishi vaqtida Sarxas hokimligida Hirot hokimi Malik G'iyosiddinning birodari Malik Muhammad hokimlik qilardi. U Temurga itoat izhor qilgandi. Qarang: (История Афганистана, т.1, стр.325)

3 . Shoh Shujo - Jamoluddin ibn Muhammad ibn al-Muzaffa . U 1364-yildan Fors, Kermon, shuningdek Isfahonda hokimlik qilgan.

"Ajoyib al-maqdur" asari tarixiy asardir. Ibn Arabshoh asarida tarixiy voqealarga , shaxslarga izoh bermaydi. Ubaydulla Uvatov ham tarixiy voqealarga, shaxslarga izoh bermaganida ko'pchilik o'quvchilar tushunishga qiynalardi bu asarni .Tarjima asarda izohlar ko'pligi bois har bir o'quvchi sevib mutolaa qildi bu kitobni. Ustozning tarjimonlik mahoratini shu yerda ham ko'rishimiz mumkin. Har bitta voqeaga, shaxslarga izoh yozish tarjimondan katta mashaqqat talab etadi.Bizga shunday nodir kitoblar bilan tanishishimizga sabab bo'lgan ustoz Ubaydulla Uvatovdan Alloh ikki dunyo rozi bo'lsin.

"Ajoyib al-maqdur" asarida ko'p uchraydigan har xil tarixiy voqealarga ishoratlar imkoniyat boricha sharhlanib, ba'zi istilohlar , iboralar va masalalarga ham qisqacha izohlar berilgan.Alohida izohni talab qilmaydigan so'zlar, iboralarga tushuntiruvchi ,qisqa izohlar esa o'rta qavs ichida tarjima matnida keltirilgan.Tarjima ravon va tushunarli bo'lishi uchun matniga tarjimon Ubaydulla Uvatov kiritgan qo'shimcha so'zlar kichik qavs ichiga olingan holda berilgan.Jug'rofiy nomlarni ifodalashda professor X.Hasanov qo'llagan tartiblarga tayanilib, shaxsiy ismlar uchun esa o'zbek tilidagi tarixiy adabiyotlarda qo'llaniladigan odatdagি qoidalarga rioya qilingan.

Masalan:

"Temur ibn Tarag'ay ibn Abag'ay bo'lib , uning tug'ilgan joyi Xo'ja Ilg'or deb ataladigan qishloqdir .Xo'ja Ilg'or Keshga qarashli joylardandir . Kesh Movaraunnahr shaharlaridan biri bo'lib , Samarqanddan taxminan o'n uch farsax masofadadir" .

1. Xo'ja Ilg'or- V.V. Bartoldning yozishicha , Ibn Arabshoh asaridan boshqa hech bir manbada Temur tug'ilgan joy nomi ko'rsatilmagan. (Соч., т. I I .(2, стр.39). Xo'ja Ilg'or qishlog'i hozirgacha mavjud bo'lib, Shahrisabzdan 13 km janubiy-g'arbiy tomonda - hozirgi Yakkabog' tumani hududida joylashgan.Qishloq ahli o'rtasida Amir Temur shu qishloqda tug'ilgan degan rivoyat bor.

2 . Kesh- O'rta Osiyoning qadimi shaharlaridan bo'lib , arab geografi Yoqubiyning yozishicha , u VII asrda bunyod etilgan. XIV asrdan esa Shaxrisabz deb atala boshladi.Temurning tug'ilgan vatani bo'lganligi sababli XIV - XV asrlarda shahar har tomonlama obod bir o'lkaga aylantirildi.

3 . Movaraunnahr - lug'aviy ma'nosi "daryo orqasidagi yer" bo'lib Amudaryodan shimolga qarab cho'zilgan O'rta Osiyo yerkari arabcha shunday atalgan .Bu arabcha ibora qadimgi geograflarning Transiksiana Oksus (Amudaryoning orqasidagi) degan istilohning tarjimasidan iborat .(Yoqt al-Hamaviy "Mo'jam al-bo'ldon" , VII jild , 370-bet)

Ubaydulla Uvatov asarni tarjima qilishda nafaqat izohlar bergen , balki asardagi xato ma'lumotlarni ham aniqlab , ular haqida izohlar qoldirgan.Ibn Arabshoh haddan tashqari qofiyaga berilib ketganidan ba'zi o'rinnarda xato ma'lumotlar keltiradi qofiyaga mos tushsa bo'ldi deb .O'quvchi noto'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin edi Amir Temur haqida , tariximiz haqida . Ustozning tarjimonlik mahoratini shu yerda ham ko'rishimiz mumkin.Ba'zi tarjimonlarga o'xshab mas'uliyatsizlik qilib shunchaki tarjima qilib qo'yagan. Amir Temur bobomiz haqida dunyoning ko'p mamlakatlarda noto'g'ri qarashlar paydo bo'lgan va hozirgacha ham shunday. Sababi Ibn Arabshoh asarini ular faqat salbiy , xato ma'lumotlariga e'tibor qaratadi. Aqlarini ishlatmaydiki , bu xato ma'lumot deb yoki boshqa temurshunos tarixchilarni ma'lumotlariga muqoyasa

qilinganda ham xato o'rinlar yaqqol ko'rindi .Ibn Arabshohning Amir Temurga nisbatan salbiy fikr bildirishlarining birinchi sababi Ibn Arabshoh 12 yoshli o'spirin ekanligida Temur va uning qo'shinlari Damashqni bosib olgach, Damashq aholisini tutqinlikda Samarcandga olib ketadi. O'sha tutqinlar ichida 12 yoshli Ibn Arabshoh , uning oilasi, qavmu qarindoshlari ham bo'lgan. Vatandan judo bo'lisch og'ir hodisa .Bundan tashqari, Ibn Arabshohning ko'z o'ngida Temur ko'p joylarni birin-ketin bosib olgan .Ikkinci sababi esa Ibn Arabshoh voqe-a-hodisalarining realligiga emas, ko'proq qofiyaga e'tiborni qaratib yuborgan.

"Ajoyib al-maqdur" asari muvaffaqiyatlari tarjima qilinganligining sababi Ubaydulla Uvatovning nafaqat tarjimon , balki manbashunos, tarix fanlari doktori, professional arab tili o'qituvchisi ekanligidadir.Tarjima muvaffaqiyatlari chiqishi tarjimondan ikki tilni ham mukammal bilishni, tarjima qilinayotgan til xalqining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari, tarixidan xabardor bo'lishni, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanini puxta bilishni hamda tarjimonlik mahoratiga , yozuvchilik uslubiga ega bo'lishini talab qiladi.Quyida aytil o'tilgan barcha xususiyatlar, shartlar Ubaydulla Uvatovda ortig'i bilan mujassam edi. "Ajoyib al-maqdur" asari muvaffaqiyatlari chiqganining yana bir sababi olim Ubaydulla Uvatov 10 yildan oshiq arab xalqlarida yashab xizmat qilgan. U vaqtida olim arab xalqlarining madaniyati , turmush tarzi hamda adabiyotlari bilan yaqindan tanishgan.Ish faoliyatidan bo'sh vaqtleri do'sti Ahadjon Hasanov bilan kutubxonaga kitob o'qigani tez - tez borib turgan.Arab tilida yozilgan turli xil kitoblarni o'qigan. Bir kun kutubxonaga borganida ko'zi Amir Temur haqida yozilgan kitobga tushadi , nahotki bizning ajdodlarimiz haqidagi kitoblar bu mamlakatda ham bo'lsa, deya kitobni varoqlashga tushib ketadi.Kutubxonada nafaqat Amir Temur bobomiz haqidagi, balki boshqa ajdodlarimiz Imom al Buxoriy, Hakim Termizi, az Zamashshariy, Imom Termizi va boshqa ajdodlarimiz haqidagi kitoblarni ko'radi.Ajdodlarimiz hayoti va ijodiga o'sha kutubxonadalingda qiziq boshlaydi va turli xil tadqiqotlar olib borib Ajdodlarimiz merosi, hayoti va ijodlari to'g'risida nodir asarlar yozishga qo'l uradi.

Foydalaniqan adabiyotlar

Abdullayev ,

1. Samarqandlik olimlar, Toshkent, 1996.
2. Timur tarixida taqdir ajoyibotlari/Arab T 1991
3. литературная энциклопедия, Т.И.Москва,1939.
4. O'zbekiston-buyuk allomalar yurti, 2017,to'plam